

**ZAMONAVIY PSIXOLOGIYA VA PEDAGOGIKA:
MUAMMO VA YECHIMLAR**

6/2026



**I-RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
YAKUNLARI BO'YICHA ILMIY ISHLAR TO'PLAMI**



ZAMONAVIY PSIXOLOGIYA VA PEDAGOGIKA: MUAMMO VA YECHIMLAR

6/2026 — I-Respublika ilmiy-amaliy konferensiya yakunlari bo'yicha ilmiy ishlar to'plami

1

INVESTITSION FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISH JARAYONINING BOSQICHLARI VA ULARNING IQTISODIY MAZMUNI

1-9-bet

Valikulov Sherzod Zaynitdinovich (muallif)

<https://conference.uznauka.uz/index.php/zpp/article/view/606>

2

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING PEDAGOGIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TA'LIM MUHITINING IMKONIYATLARI

10-15-bet

Muxamadaliyeva Madinabonu Bohodirjon qizi (muallif)

<https://conference.uznauka.uz/index.php/zpp/article/view/611>

3

MINIMALLY INVASIVE BILIARY DRAINAGE VERSUS PALLIATIVE SURGICAL BILIODIGESTIVE ANASTOMOSES IN MALIGNANT OBSTRUCTIVE JAUNDICE: IMMEDIATE OUTCOMES

16-17-bet

Urozov Nu'monjon Sa'dullaevich (muallif)

<https://conference.uznauka.uz/index.php/zpp/article/view/616>

4

BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA FAOLIYATLI YONDASHUV ASOSIDA O'QUVCHILAR LIDERLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH

18-23-bet

Ziyodullayeva Sarvinoz Shamsiddin qizi (muallif)

<https://conference.uznauka.uz/index.php/zpp/article/view/621>

5

EKOLOGIK GUMANIZMNING ASOSIY G'OYALARI VA ZAMONAVIY EKOLOGIK TA'LIMDAGI O'RNI (YANGI O'ZBEKISTON MISOLIDA)

24-33-bet

Sodiqov Jaxongir Toshpulat o'g'li (muallif)

<https://conference.uznauka.uz/index.php/zpp/article/view/624>

INVESTITSION FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISH JARAYONING BOSQICHLARI VA ULARNING IQTISODIY MAZMUNI

Valikulov Sherzod Zaynitdinovich

Toshkent davlat texnika universiteti

Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti kafedrasida mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: valikulovs84@gmail.com

***Annotatsiya.** Ushbu tezisdagi investitsion faoliyatning amalga oshirish jarayonlari borasida izlanishlar olib borilgan. Investitsion faoliyatni amalga oshirish haqida mahaliya va horijiy olimlarni ilmiy yondoshuvlari o'rganilib kerakli hulosalar shakillantrilgan.*

***Kalit so'zlar:** investitsion siyosat, investitsion faoliyat, portfeli strategiyasi.*

STAGES OF THE INVESTMENT ACTIVITY IMPLEMENTATION PROCESS AND THEIR ECONOMIC CONTENT

***Abstract.** This thesis examines the processes involved in implementing investment activity. Scientific approaches of both domestic and foreign scholars regarding the implementation of investment activity were studied, and relevant conclusions were formulated.*

***Keywords:** investment policy, investment activity, portfolio strategy.*

ЭТАПЫ ПРОЦЕССА ОСУЩЕСТВЛЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ИХ ЭКОНОМИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ.

***Аннотация:** В данном тезисе проведены исследования процессов осуществления инвестиционной деятельности. Изучены научные подходы*



местных и зарубежных ученых к реализации инвестиционной деятельности, на основе которых сформированы соответствующие выводы.

Ключевые слова: инвестиционная политика, инвестиционная деятельность, портфельная стратегия.

KIRISH

So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalarni jalb qilish va ularni samarali boshqarish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Investitsion faoliyatning samaradorligi mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta‘minlashda muhim omil hisoblanadi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, investitsion muhitning barqarorligi, institutsional islohotlar va strategik boshqaruv mexanizmlari bu jarayonning muvaffaqiyatini belgilaydi.

Xorijiy adabiyotlarda investitsion faoliyat besh bosqichda amalga oshiriladi: investitsion maqsadlarni shakllantirish, investitsion siyosatni ishlab chiqish, portfel strategiyasini tanlash, aktivlarni aniqlash va investitsiyalar samaradorligini baholash. Har bir bosqich sarmoyalarni boshqarish va natijalarni baholashning konseptual yondashuvlari bilan tavsiflanadi, va jarayon siklik tarzda takrorlanib, investitsion faoliyatning uzluksiz takomillashuvini ta‘minlaydi.

Ushbu maqolada turli davlatlardagi ilg‘or tajribalar tahlil qilinib, ularni O‘zbekiston sharoitida amaliyotga tatbiq etish istiqbollari o‘rganiladi. Shuningdek, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlar hisobga olingan holda investitsion strategiyalarni shakllantirish va samaradorlikni oshirish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi – mamlakatimizda investitsion faoliyatni yanada samarali

boshqarish va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini oshirish yo'llarini aniqlashdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Ushbu tezis ko'proq **sistematik tahlil va konseptual-metodologik yondashuv** asosida olib borilgan. Metodologiyaning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: *Nazariy tahlil* – tadqiqotda xorijiy olimlar va adabiyotlar tahlil qilinib, investitsion faoliyatning besh bosqichi (maqsadlarni belgilash, siyosatni shakllantirish, portfel strategiyasini tanlash, aktivlarni tanlash va samaradorlikni baholash) konseptual asoslarda izohlangan. Bu bosqichlar ilmiy nazariya, strategik menejment, institutsional iqtisodiyot va moliyaviy nazariya tamoyillari bilan bog'langan. *Siklik va iterativ yondashuv* – investitsion jarayonning siklik xarakteri, ya'ni har bir bosqich natijalariga asoslangan takroriy baholash va takomillashtirish metodologik jihatdan ko'rsatilgan. Bu investitsiyalar samaradorligini doimiy ravishda oshirishga qaratilgan. *Integratsiyalangan yondashuv* – iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillarni hisobga olishga urg'u berilgan, shuningdek, mamlakat ichidagi va xalqaro tajribalarni solishtirish orqali investitsion strategiyalarni ishlab chiqish tavsiya qilingan.

Shu bilan birga, tadqiqot analitik, komparativ va konseptual metodlardan foydalanib, O'zbekiston iqtisodiyotida investitsion faoliyatni samarali boshqarishning strategik jihatlarini o'rganishga yo'naltirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xorijlik olimlar yozgan kitoblarida, jurnal va gazetalarida investitsion faoliyat borasida o'zining fikrlarini bayon etgan, masalan, xorijiy adabiyotlarda investitsiya faoliyatining besh bosqichi mavjud bo'lib, ularning jarayoni 1-rasmda ko'rsatilgan. Bosqichlarning har biri sarmoyalarni boshqarish va samaradorligini baholashning konseptual yondashuvlari bilan tavsiflanadi.

Investitsion faoliyatni amalga oshirish jarayoni" bu jarayonda olim aytgan bosqichlarni ko'rib chiqib quyidagi fikirlarni yuritsak bo'ladi. Bu bosqichlar siklik ravishda amalga oshiriladi, chunki har bir investitsiya loyihasi va strategiyasi doimiy ravishda baholanib, takomillashtirilishi zarur. Bu jarayon, odatda, investitsiya jarayonining muvaffaqiyatli bo'lishi uchun asosiy tayanch bo'lib xizmat qiladi va kompaniya yoki tashkilotning uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlaydi.



1-rasm. Investitsion faoliyatni amalga oshirish jarayoni.

Avvalo, *investitsion maqsadlarni shakllantirish* bosqichi investitsion faoliyatning boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi. Bu bosqichda investor yoki xo'jalik yurituvchi subyekt o'zining strategik rivojlanish yo'nalishlari, moliyaviy imkoniyatlari, riskka bo'lgan munosabati va kutilayotgan daromadlilik darajasidan kelib chiqib aniq maqsadlarni belgilaydi. Ilmiy nuqtai nazardan, bu jarayon qaror qabul qilish nazariyasi, strategik menejment va institutsional iqtisodiyot tamoyillariga asoslanadi. Maqsadlarning to'g'ri qo'yilishi keyingi bosqichlar samaradorligini belgilovchi asosiy determinant hisoblanadi.

Keyingi bosqich – *investitsion siyosatni shakllantirish* bo'lib, u belgilangan maqsadlarga erishish mexanizmlarini ishlab chiqishni nazarda tutadi. Investitsion siyosat doirasida resurslarni taqsimlash, ustuvor yo'nalishlarni tanlash, moliyalashtirish manbalarini aniqlash va risklarni boshqarish strategiyalari ishlab chiqiladi. Bu bosqichda makroiqtisodiy muhit, davlat siyosati, soliq tizimi va bozor kon'yunkturasi kabi tashqi omillar ham muhim rol o'ynaydi. Shu jihatdan investitsion siyosat adaptiv va dinamik xarakterga ega bo'lib, o'zgaruvchan iqtisodiy sharoitlarga moslashuvchan bo'lishi zarur.

Uchinchi bosqich – *portfel strategiyasini tanlash* investitsion faoliyatning eng muhim nazariy asoslangan qismidir. Bu yerda investor risk va daromadlilik o'rtasidagi optimal nisbatni ta'minlashga intiladi. Zamonaviy moliyaviy nazariyada bu jarayon Markovitsning portfel nazariyasi, Sharpe modeli va CAPM kabi konsepsiyalar orqali asoslanadi. Diversifikatsiya, aktivlarni taqsimlash va risklarni minimallashtirish ushbu bosqichning asosiy elementlari hisoblanadi. Ayniqsa, noaniqlik sharoitida portfelni shakllantirish ehtimollik nazariyasi va statistik modellarga tayanadi.

To'rtinchi bosqich – *aktivlarni tanlash* bo'lib, bu jarayonda aniq investitsiya obyektlari aniqlanadi. Aktivlar real (asosiy vositalar, infratuzilma loyihalari) yoki moliyaviy (aksiyalar, obligatsiyalar, derivativlar) shaklda bo'lishi mumkin. Aktivlarni tanlashda ularning likvidligi, daromadlilik, risk darajasi va bozordagi holati chuqur tahlil qilinadi. Ushbu bosqich mikroiqtisodiy tahlil, moliyaviy hisobotlarni baholash va fundamental hamda texnik tahlil usullariga asoslanadi.

Yakuniy bosqich – *investitsiyalar samaradorligini baholash* bo'lib, u butun investitsion jarayonning natijadorligini aniqlashga xizmat qiladi. Samaradorlikni baholashda sof joriy qiymat (NPV), ichki daromadlilik normasi (IRR), rentabellik indeksi (PI) kabi ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Shu bilan birga, risklarni hisobga olgan holda diskontlash usullari qo'llaniladi. Bu bosqich nafaqat yakuniy natijalarni baholash, balki kelajakdagi investitsion qarorlarni takomillashtirish uchun ham muhim axborot bazasini yaratadi.

Muhimi shundaki, mazkur bosqichlar yopiq siklni tashkil etadi. Ya'ni, samaradorlikni baholash natijalari asosida yangi investitsion maqsadlar qayta ko'rib chiqiladi va jarayon takroran boshlanadi. Bu esa investitsion faoliyatning uzluksiz takomillashib borishini ta'minlaydi.

“Investitsiya faolligi va uning samaradorligini oshirish uchun yuqorida ta'kidlab o'tilgan chora-tadbirlar, avvalambor, iqtisodiy-ijtimoiy va ekologik bashoratlarga asoslanmog'i lozim, chunki, iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etishda yuqori samaraga erishishda nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik jihatlar ham muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham mamlakat doirasida ishlab chiqiladigan investitsiya dasturlari va loyihalari iqtisodiy-ijtimoiy va ekologik maqsadlarga yo'naltirilgan bo'lmog'i lozim.”[2], “So'nggi yillarda O'zbekiston

iqtisodiyotida investitsiyalarni jalb qilish va ularni samarali boshqarish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, investitsion muhitning barqarorligi va institutsional islohotlar bu jarayonning muvaffaqiyatini ta‘minlaydi. Ushbu maqolada turli davlatlardagi ilg‘or tajribalar tahlil qilinib, mamlakatimizda ularni amaliyotga joriy etish istiqbollari ko‘rib chiqiladi.”[3] Tadqiqotchini ushbu fikrida O‘zbekiston iqtisodiy siyosatida investitsiyalarni jalb qilish va samarali boshqarishning strategik ahamiyatini ta‘kidlaydi. Xalqaro tajribaga tayangan holda, barqaror investitsion muhit va institutsional islohotlar mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi uchun muhim omil ekanligi ko‘rsatiladi. Shuningdek, maqola turli davlatlardagi ilg‘or usullarni o‘zimizda amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini o‘rganishga qaratilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, investitsion faoliyatning samaradorligi nafaqat iqtisodiy omillarga, balki ijtimoiy va ekologik jihatlarga ham bog‘liq. Investitsion jarayonning besh bosqichi – maqsadlarni shakllantirish, siyosatni ishlab chiqish, portfel strategiyasini tanlash, aktivlarni aniqlash va samaradorlikni baholash – bir-biri bilan bog‘liq va siklik xarakterga ega. Har bir bosqich konseptual nazariy yondashuvlar va xalqaro tajriba asosida amalga oshiriladi, bu esa O‘zbekiston sharoitida investitsion muhitning barqarorligini va institutsional islohotlarning samaradorligini oshirishga yordam beradi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, investitsiya loyihalarini rejalashtirish va amalga oshirishda strategik maqsadlar va ularning doimiy baholanishi kompaniya yoki milliy iqtisodiyotning uzoq muddatli rivojlanishi uchun asosiy omil hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, investitsion faoliyatni amalga oshirish jarayoni tizimli, ko'p bosqichli va ilmiy asoslangan qarorlar majmuasidan iborat bo'lib, uning samaradorligi har bir bosqichning puxta ishlab chiqilganligi va ular o'rtasidagi uzviy bog'liqlikka bevosita bog'liqdir.

Investitsion faoliyatni samarali tashkil etish va rivojlantirish uchun bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim. Avvalo, investitsion maqsadlarni aniqlashda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillarni hisobga olgan kompleks yondashuvni joriy etish muhimdir. Shu bilan birga, institutsional islohotlarni davom ettirish, qonun hujjatlari, soliq va moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish orqali barqaror investitsion muhitni yaratish lozim. Investitsion portfel va aktivlarni boshqarishda zamonaviy moliyaviy nazariyalarni, jumladan, Markovits portfel nazariyasi, Sharpe modeli va CAPM kabi konsepsiyalarni tatbiq etish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, investitsiyalar samaradorligini baholash tizimini takomillashtirish, NPV, IRR va PI kabi ko'rsatkichlar hamda diskontlash usullaridan foydalangan holda qarorlarni qayta ko'rib chiqish va doimiy yaxshilash zarur. Oxir-oqibat, xalqaro tajribaga tayangan holda ilg'or usullarni mamlakat sharoitiga moslab amaliyotga tatbiq etish, muvaffaqiyatli investitsion loyihalarni amalga oshirish va investitsion jarayonning uzluksiz rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Frank J. Fabbozi "Capital Markets, Financial Management, and Investment Management" Page 577.



2. Kamola Muzaffarovna KILICHEVA “ERKIN IQTISODIY HUDUDLARDA INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISHNING ILMIY-NAZARIY MASALALARI”
3. O‘tamurodova Surayyo Shokirjon qizi, “INVESTITSION FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISHNING XORIJ TAJRIBASI VA MAMLAKATIMIZDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI” YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT 2025-yil, iyun. No6-son.

**BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING
PEDAGOGIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI
TA'LIM MUHITINING IMKONIYATLARI**

Muxamadaliyeva Madinabonu Bohodirjon qizi

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchi

mukhamadaliyevamadina@gmail.com

***Annotatsiya:** Maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik tayyorgarligini rivojlantirishda raqamli ta'lim muhitining nazariy va amaliy imkoniyatlari tahlil qilingan. Raqamli transformatsiya sharoitida pedagogik ta'lim mazmunining yangilanishi, bo'lajak o'qituvchilarda raqamli kompetensiyalarni shakllantirish zarurati hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining pedagogik tayyorgarlikni rivojlantirishdagi o'rni ochib berilgan. Shuningdek, raqamli ta'lim muhitining motivatsion, kognitiv, faoliyatli va refleksiv komponentlarni rivojlantirishga ta'siri yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** raqamli ta'lim muhiti, pedagogik tayyorgarlik, kasbiy kompetentlik, raqamli kompetensiya, innovatsion texnologiyalar, elektron ta'lim resurslari, refleksiya.*

Bugungi kunda dunyo ta'lim tizimi rivojlanishining asosiy tendensiyalaridan biri raqamlashtirish jarayoni hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim jarayonining mazmuni, shakli va metodlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada pedagogik faoliyatni tashkil

etishning yangi yondashuvlari shakllanib, ta'lim subyektlarining o'zaro hamkorligi yangi bosqichga ko'tarilmoqda¹.

O'zbekiston Respublikasida ham ta'limni raqamlashtirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, elektron ta'lim resurslarini keng joriy etish hamda pedagoglarning raqamli kompetentligini rivojlantirish bo'yicha muhim vazifalar belgilangan².

Mazkur vazifalarni amalga oshirishda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik tayyorgarligini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki boshlang'ich ta'lim bosqichida faoliyat yurituvchi pedagog nafaqat fan asoslarini o'rgatishi, balki o'quvchilarda axborot madaniyati va raqamli savodxonlikni shakllantirishga ham xizmat qilishi zarur.

Pedagogik tayyorgarlik pedagogning kasbiy faoliyatni samarali tashkil etishiga xizmat qiluvchi bilimlar, ko'nikmalar, kompetensiyalar va shaxsiy sifatlar majmui sifatida talqin qilinadi³. Ilmiy manbalarda pedagogik tayyorgarlikning quyidagi tarkibiy komponentlari ajratib ko'rsatiladi:

- motivatsion komponent;
- kognitiv komponent;
- operatsion-faoliyatli komponent;
- kommunikativ komponent;
- reflektiv komponent.

¹ Tolipov O', Usmonboyeva M. *Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot*. – Toshkent: Fan, 2021. – B. 27.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni.

³ Muslimov N.A. *Kasbiy kompetentlik nazariyasi*. – Toshkent: Fan, 2019. – B. 61.



Motivatsion komponent talabaning pedagogik kasbga bo'lgan qiziqishi va ijobiy munosabatini ifodalaydi. Kognitiv komponent kasbiy bilimlar tizimini qamrab olsa, operatsion-faoliyatli komponent pedagogik faoliyatni amalga oshirish ko'nikmalarini aks ettiradi. Refleksiv komponent esa o'z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi.

Mazkur komponentlarning samarali rivojlanishi zamonaviy raqamli ta'lim muhitidan foydalanish bilan bevosita bog'liqdir.

Raqamli ta'lim muhiti ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini yagona axborot makonida birlashtiruvchi texnologik va pedagogik tizim hisoblanadi⁴. Uning asosiy tarkibiy qismlariga elektron ta'lim resurslari, masofaviy ta'lim platformalari, virtual laboratoriyalar, multimedia vositalari, sun'iy intellekt elementlari hamda elektron monitoring tizimlari kiradi.

Raqamli ta'lim muhiti quyidagi afzalliklarga ega:

- ta'limning moslashuvchanligini ta'minlaydi;
- individual ta'lim trayektoriyalarini yaratish imkonini beradi;
- o'quv jarayonining interaktivligini oshiradi;
- mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantiradi;
- ta'lim jarayonining ochiqligi va shaffofligini kuchaytiradi.

Shu jihatdan raqamli ta'lim muhiti pedagogik tayyorgarlikni rivojlantirishning samarali vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Raqamli ta'lim muhitining muhim afzalliklaridan biri talabalar motivatsiyasini oshirish imkoniyatidir. Elektron platformalar, interaktiv

⁴ Xodjaye B.X. *Umumiy pedagogika*. – Toshkent: Sano-standart, 2020. – B. 121.

topshiriqlar, gamifikatsiya elementlari va multimedia vositalari o'quv jarayonini qiziqarli hamda mazmunli tashkil etishga xizmat qiladi⁵.

Masalan, Moodle, Google Classroom va Microsoft Teams platformalaridan foydalanish talabalarning ta'lim jarayonidagi faolligini oshiradi. Ular o'zlashtirish natijalarini muntazam kuzatib borish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa ichki motivatsiyaning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan o'quv mashg'ulotlarida talabalar faolligi an'anaviy mashg'ulotlarga nisbatan yuqori bo'ladi. Chunki talaba axborotni nafaqat qabul qiladi, balki uni qayta ishlaydi, tahlil qiladi va amaliy faoliyatda qo'llaydi.

Kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirishdagi imkoniyatlar

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilimlarini rivojlantirishda raqamli ta'lim muhitining ahamiyati beqiyosdir. Elektron kutubxonalar, ma'lumotlar bazalari, ilmiy platformalar va onlayn kurslar orqali talabalar o'z bilimlarini mustaqil ravishda boyitish imkoniyatiga ega bo'ladilar⁶.

Xususan, pedagogika, psixologiya va metodika fanlari bo'yicha yaratilgan elektron resurslar nazariy bilimlarni chuqur o'zlashtirishga yordam beradi. Multimedia texnologiyalari esa murakkab pedagogik jarayonlarni vizual tarzda tushuntirish imkonini yaratadi.

Shuningdek, virtual seminarlar va vebinarlar talabalarning ilmiy dunyoqarashini kengaytiradi, ularni zamonaviy pedagogik g'oyalar bilan tanishtiradi va kasbiy kompetentligining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Faoliyatli komponentni rivojlantirish

⁵ Saidahmedov N. *Yangi pedagogik texnologiyalar*. – Toshkent: Moliya, 2020. – B. 82.

⁶ Ishmuhamedov R., Yo'ldoshev M. *Ta'limda innovatsion texnologiyalar*. – Toshkent: Nihol, 2018. – B. 104.

Pedagogik tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismlaridan biri amaliy faoliyatdir. Raqamli ta'lim muhiti talabalarga virtual pedagogik vaziyatlar asosida mashq qilish imkonini beradi.

Masalan, interaktiv simulyatorlar yordamida dars ishlanmalarini yaratish, elektron testlarni ishlab chiqish, raqamli taqdimotlar tayyorlash va masofaviy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha amaliy tajriba shakllanadi. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorligini sezilarli darajada oshiradi⁷.

Bundan tashqari, raqamli platformalarda amalga oshiriladigan loyiha ishlari talabalarning hamkorlikda ishlash, muammolarni hal qilish va pedagogik qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik tayyorgarligini rivojlantirishda refleksiya muhim o'rin tutadi. Refleksiya pedagogik faoliyat natijalarini tahlil qilish, o'zining kasbiy imkoniyatlarini baholash hamda kelgusidagi rivojlanish istiqbollari aniqlashga xizmat qiluvchi mexanizm hisoblanadi. Zamonaviy raqamli ta'lim muhiti refleksiv faoliyatni samarali tashkil etish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Elektron portfoliolar, onlayn kundaliklar, bloglar, forumlar va virtual muhokama maydonlari talabalarga o'z faoliyatini muntazam tahlil qilish imkonini beradi. Talaba o'zining yutuq va kamchiliklarini aniqlaydi, pedagogik faoliyatda duch kelgan muammolarni tahlil qiladi hamda ularni bartaraf etish strategiyalarini ishlab chiqadi. Bunday jarayon kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish ehtiyojini shakllantiradi va pedagogik mahoratning takomillashuviga xizmat qiladi.

⁷ Azizxo'jayeva N.N. *Pedagogik mahorat*. – Toshkent: TDPU, 2019. – B. 156.



Raqamli vositalar asosida tashkil etilgan refleksiya pedagogik tayyorgarlikning sifat ko'rsatkichlarini oshirishga imkon beradi. Ayniqsa, elektron portfolio texnologiyasi bo'lajak o'qituvchining individual rivojlanish dinamikasini monitoring qilish, uning kasbiy yutuqlarini tizimli ravishda qayd etish va baholash imkonini yaratadi⁸.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni.
2. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2021.
3. Muslimov N.A. Kasbiy kompetentlik nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2019.
4. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika. – Toshkent: Sano-standart, 2020.
5. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2020.
6. Ishmuhamedov R., Yo'ldoshev M. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Nihol, 2018.
7. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2019.

⁸ Азизхўжаева Н.Н. Педагогик маҳорат. – Тошкент: ТДПУ, 2019. – Б. 178.

MINIMALLY INVASIVE BILIARY DRAINAGE VERSUS PALLIATIVE SURGICAL BILIODIGESTIVE ANASTOMOSES IN MALIGNANT OBSTRUCTIVE JAUNDICE: IMMEDIATE OUTCOMES


Urozov Nu'monjon Sa'dullaevich

Samarkand State Medical University

Relevance. Malignant obstructive jaundice caused by tumors of the hepatopancreatoduodenal zone is associated with high postoperative morbidity and a mortality of 10–35%. Although endoscopic, percutaneous and combined minimally invasive drainage techniques have largely replaced open palliative surgery, the comparative early safety of these approaches in routine clinical practice — where minimally invasive methods are often applied to the most debilitated patients — requires further evidence.

Material and methods. Immediate outcomes were analyzed in 149 patients with malignant obstructive jaundice treated between 2019 and 2024. Biliary decompression was achieved by retrograde endoscopic drainage (n=110), antegrade percutaneous transhepatic drainage (n=18) or palliative surgery with a biliodigestive anastomosis (n=17). The technical success of endoscopic cholangiography, the early complication rate and in-hospital mortality were compared between the methods.

Results and discussion. Successful endoscopic cholangiography was achieved in 82.7% of cases, and endoscopic biliary decompression in 110 of 132 patients (83%). Early complications occurred in 29.4% of the surgical group, compared with 15.5% after retrograde and 11.1% after antegrade drainage. In-hospital mortality was likewise highest after surgery (17.6%) and lowest after



antegrade drainage (5.5%), with 11.8% after retrograde drainage. Notably, the minimally invasive techniques were applied to a more severely ill cohort, in whom open surgery would have carried an even greater operative risk. The least favorable conditions for retrograde drainage were strictures at the confluence (success 40%) and terminal common bile duct strictures combined with duodenal stenosis (22.7%).

Conclusion. Compared with palliative surgical biliodigestive anastomoses, minimally invasive biliary drainage — both antegrade and retrograde — provides significantly lower early complication and mortality rates in patients with malignant obstructive jaundice, even though it is applied to a higher-risk population. These findings support minimally invasive decompression as the preferred first-line approach in inoperable hepatopancreatoduodenal tumors

**BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA FAOLIYATLI
YONDASHUV ASOSIDA O'QUVCHILAR LIDERLIK SIFATLARINI
RIVOJLANTIRISH**

Ziyodullayeva Sarvinoz Shamsiddin qizi

Termiz davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida faoliyatli yondashuv asosida o'quvchilarning liderlik sifatlarini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Faoliyatli yondashuvning pedagogik mohiyati, uning o'quvchilarda tashabbuskorlik, mustaqillik, mas'uliyat va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Ona tili darslarida qo'llaniladigan interfaol metodlar va hamkorlikka asoslangan faoliyat turlari orqali liderlik sifatlarini rivojlantirishning metodik imkoniyatlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: faoliyatli yondashuv, liderlik, boshlang'ich ta'lim, ona tili darsi, kompetensiya, kommunikativ ko'nikma, tashabbuskorlik, hamkorlik, interfaol metodlar.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы развития лидерских качеств учащихся начальных классов на уроках родного языка на основе деятельностного подхода. Раскрываются педагогическая сущность деятельностного подхода и его роль в формировании инициативности, самостоятельности, ответственности и коммуникативных компетенций учащихся. Обоснованы методические возможности развития лидерских качеств посредством интерактивных методов обучения и различных форм совместной деятельности.

Ключевые слова: деятельностный подход, лидерство, начальное образование, урок родного языка, компетенция, коммуникативные навыки, инициативность, сотрудничество, интерактивные методы.

ABSTRACT

This article examines the development of leadership qualities among primary school students through an activity-based approach in mother tongue lessons. The pedagogical essence of the activity-based approach and its role in fostering initiative, independence, responsibility, and communicative competencies are discussed. The methodological possibilities of developing leadership qualities through interactive teaching methods and collaborative learning activities are substantiated.

Keywords: activity-based approach, leadership, primary education, mother tongue lesson, competence, communication skills, initiative, collaboration, interactive methods.

Bugungi kunda ta'lim tizimida o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, uning mustaqil fikrlashi, tashabbuskorligi va ijtimoiy faolligini shakllantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bois ta'lim jarayonida faqat bilim berishga emas, balki o'quvchilarning hayotiy kompetensiyalarini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunday kompetensiyalar orasida liderlik sifatlari muhim o'rin egallaydi. Liderlik shaxsning jamoa bilan samarali hamkorlik qilishi, muayyan vaziyatlarda tashabbus ko'rsatishi, mas'uliyatni o'z zimmasiga ola bilishi va boshqalarni umumiy maqsad sari yo'naltira olishida

namoyon bo'ladi. Mazkur sifatlarning dastlabki elementlari aynan boshlang'ich ta'lim davrida shakllanadi.

Boshlang'ich sinf ona tili darslari o'quvchilarning nutqiy, kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarga ega. Ona tili ta'limining asosiy vazifasi o'quvchilarda til birliklari haqidagi bilimlarni shakllantirish bilan cheklanmay, ularning fikrlash madaniyati, muloqot ko'nikmalari va ijodiy faolligini rivojlantirishdan ham iboratdir. Aynan shu jihatlar liderlik sifatlarining shakllanishi uchun muhim pedagogik asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki liderlikning asosiy mezonlaridan biri samarali muloqot olib borish, o'z fikrini aniq va asosli ifodalash hamda boshqalarning fikrini hurmat qila olish qobiliyatidir.

Pedagogik adabiyotlarda faoliyatli yondashuv ta'lim oluvchining o'quv jarayonidagi faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan metodologik tamoyil sifatida talqin qilinadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, bilimlar tayyor shaklda o'zlashtirilmaydi, balki o'quvchining amaliy faoliyati, izlanishi va mustaqil fikrlashi natijasida egallanadi. Faoliyatli yondashuvning asosiy maqsadi o'quvchini ta'lim jarayonining markaziy subyektiga aylantirishdan iborat bo'lib, bu jarayonda u muammolarni hal qiladi, qaror qabul qiladi, o'z fikrini himoya qiladi va jamoaviy faoliyatda ishtirok etadi. Bunday faoliyatlar esa liderlik sifatlarining tabiiy ravishda rivojlanishiga xizmat qiladi.

Ona tili darslarida faoliyatli yondashuvni qo'llash o'quvchilarning tashabbuskorligini oshirishga, mustaqil fikrlashini rivojlantirishga va hamkorlik madaniyatini shakllantirishga imkon beradi. Xususan, guruhlarda ishlash, munozarali topshiriqlar, rolli o'yinlar, ijodiy matnlar yaratish, taqdimotlar

tayyorlash kabi faoliyat turlari o'quvchilarning liderlik salohiyatini yuzaga chiqarishda muhim ahamiyatga ega. Bunday mashg'ulotlar davomida o'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifodalash, tengdoshlari bilan muloqot qilish, jamoa ishini tashkil etish va umumiy natijaga erishish uchun mas'uliyatni his qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Liderlik sifatlarini rivojlantirishning samaradorligi ko'p jihatdan ta'lim jarayonining to'g'ri tashkil etilishiga bog'liq. O'qituvchi o'quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda ularni faol faoliyatga jalb qilishi, tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashi va ijodiy fikrlashga undashi zarur. Bu jarayonda o'qituvchi nazorat qiluvchi subyekt emas, balki hamkor va yo'naltiruvchi sifatida namoyon bo'ladi. Natijada ta'lim muhiti o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini namoyon etishiga, o'zaro hamkorlik asosida ishlashiga va liderlik tajribasini egallashiga xizmat qiladi.

Shunday qilib, boshlang'ich sinf ona tili darslarida faoliyatli yondashuv asosida o'quvchilar liderlik sifatlarini rivojlantirish zamonaviy pedagogikaning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur yondashuv o'quvchilarning nafaqat bilim va ko'nikmalarini, balki ularning ijtimoiy faolligi, tashabbuskorligi, mas'uliyati va kommunikativ kompetensiyalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa kelajakda jamiyatda faol pozitsiyaga ega, mustaqil fikrlovchi va yetakchilik qobiliyatiga ega shaxslarni tarbiyalashning muhim pedagogik omili sifatida namoyon bo'ladi.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida faoliyatli yondashuvni qo'llash o'quvchilarning nafaqat bilim va ko'nikmalarini, balki ularning liderlik sifatlarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim

jarayonida o'quvchilar mustaqil fikrlash, o'z nuqtayi nazarini asoslash, jamoa bilan hamkorlik qilish va mas'uliyatli qarorlar qabul qilish tajribasiga ega bo'ladilar. Natijada ularda tashabbuskorlik, muloqot madaniyati, ijodkorlik va tashkilotchilik kabi liderlik kompetensiyalari shakllanadi. Shuning uchun boshlang'ich ta'limda ona tili darslarini faoliyatli yondashuv asosida tashkil etish zamonaviy ta'limning muhim pedagogik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vygotsky Lev Semenovich. **Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes**. Boston: Harvard University Press, 1978.
2. Leontiev Aleksei Nikolaevich. **Activity, Consciousness, and Personality**. Moscow: Progress Publishers, 1978.
3. John Dewey. **Democracy and Education**. New York: Macmillan, 1916.
4. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlariga oid me'yoriy hujjatlari. – Toshkent, 2023.
6. Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021.
7. Ona tili fanidan milliy o'quv dasturi. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021.
8. Azizxo'jayeva Nodira Nematovna. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2016.



9. Tolipov O'ktam Qo'ysinovich, Usmonboyeva Mavluda Hamidovna.
Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.

**EKOLOGIK GUMANIZMNING ASOSIY G'OYALARI VA
ZAMONAVIY EKOLOGIK TA'LIMDAGI O'RNINI (YANGI O'ZBEKISTON
MISOLIDA)**

Sodiqov Jaxongir Toshpulat o'g'li
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
E-mail: sodiqovjaxongir827@gmail.com
Tel: (77)7779778 909610696
ORCID [https://orcid.org/ 0009-0002-5912-0050](https://orcid.org/0009-0002-5912-0050)

Abstract: *This article analyzes the core ideas of ecological humanism and reveals their methodological and practical significance in the modern environmental education system. It substantiates the necessity of a new educational paradigm that harmonizes humanism with a caring attitude toward nature amid the ecological crisis. Using the case of New Uzbekistan, the integration of ecological humanism principles into the national education system is illustrated through environmental education reforms, the strategy for transitioning to a “green” economy, and nationwide projects such as “Yashil Makon” (Green Space). The article demonstrates that the ideas of ecological humanism serve as an important conceptual foundation for shaping ecocentric consciousness, responsible environmental behavior, and sustainable development values in learners.*

Keywords: *ecological humanism, environmental education, ecological culture, sustainable development, noosphere thinking, New Uzbekistan, ecocentric consciousness.*

Аннотация

В данной статье анализируются основные идеи экологического гуманизма и раскрывается их методологическое и практическое значение в современной системе экологического образования. Обосновывается необходимость новой образовательной парадигмы, сочетающей гуманизм и бережное отношение к природе в условиях экологического кризиса. На примере Нового Узбекистана освещается процесс внедрения принципов экологического гуманизма в национальную систему образования через реформы экологического образования, стратегию перехода к «зелёной» экономике и общенациональные проекты, такие как «Яшил макон» (Зелёное пространство). В статье показано, что идеи экологического гуманизма служат важной концептуальной основой для формирования у учащихся экоцентрического сознания, ответственного экологического поведения и ценностей устойчивого развития.

Ключевые слова: экологический гуманизм, экологическое образование, экологическая культура, устойчивое развитие, ноосферное мышление, Новый Узбекистан, экоцентрическое сознание.

Annotatsiya

Mazkur maqolada ekologik gumanizmning asosiy g'oyalari tahlil qilinib, ularning zamonaviy ekologik ta'lim tizimidagi metodologik va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Ekologik inqiroz sharoitida insonparvarlik va tabiatga ehtiyotkorona munosabatni uyg'unlashtiruvchi yangi ta'lim paradigmasining zarurati asoslab berilgan. Yangi O'zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan ekologik ta'lim

islohotlari, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi hamda “Yashil makon” kabi umummilliy loyihalar misolida ekologik gumanizm tamoyillarining milliy ta’lim tizimiga singdirilish jarayoni yoritilgan. Maqolada ekologik gumanizm g‘oyalari o‘quvchilarda ekosentrik ongni, mas’uliyatli ekologik xulq-atvorni va barqaror rivojlanish qadriyatlarini shakllantirishda muhim konseptual asos bo‘lib xizmat qilishi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: ekologik gumanizm, ekologik ta’lim, ekologik madaniyat, barqaror rivojlanish, noosfera tafakkuri, Yangi O‘zbekiston, ekosentrik ong.

Kirish

XXI asrda insoniyat oldida turgan eng jiddiy muammolardan biri global ekologik inqirozdir. Iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi, tabiiy resurslarning kamayishi kabi tahdidlar jamiyat va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarni tubdan qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Bunday sharoitda faqat texnologik yechimlar bilan cheklanish yetarli emas; ayni paytda inson ongi, qadriyatlari va axloqiy qarashlarini o‘zgartirishga yo‘naltirilgan yangicha ma’naviy-intellektual yondashuv zarur. Ekologik gumanizm aynan shunday yondashuv sifatida maydonga chiqib, insonni tabiat ustidan hukmron emas, balki uning ajralmas va mas’uliyatli qismi sifatida ko‘radi. Ushbu falsafiy oqim g‘oyalari zamonaviy ekologik ta’lim mazmunini boyitish, uni faqat ekologik bilim berishdan iborat tor doiradan olib chiqib, shaxsning ekologik dunyoqarashi va madaniyatini shakllantirish darajasiga ko‘tarish imkonini beradi. Yangi O‘zbekiston sharoitida bu g‘oyalar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan ekologik xavfsizlikni ta’minlash va “yashil” taraqqiyotga o‘tish bilan bevosita uyg‘unlashmoqda. Maqolaning maqsadi ekologik gumanizmning asosiy

konseptual qoidalarini ochib berish va ularni Yangi O'zbekiston misolida zamonaviy ekologik ta'lim amaliyotiga tatbiq etish mexanizmlarini tahlil qilishdan iborat.

Ekologik gumanizmning asosiy g'oyalari

Ekologik gumanizm Uyg'onish davri gumanizmidan farqli ravishda, insonni koinot markaziga qo'yuvchi an'anaviy antropotsentrizmdan voz kechadi. U ekologiya va insonparvarlik qadriyatlarini sintez qilgan holda, quyidagi fundamental g'oyalarga tayanadi:

1. **Inson va tabiatning birligi (antropokosmizm).** Bu g'oyaga ko'ra, inson tabiatning bir qismi bo'lib, uning taqdiri biosfera taqdiri bilan chambarchas bog'liqdir. V.I.Vernadskiyning noosfera haqidagi ta'limotida inson ongi geologik kuchga aylanib, biosfera evolyutsiyasini boshqarishga qodir bo'lgan yangi sifat bosqichi sifatida talqin etiladi. Ekologik gumanizm aynan noosferaviy tafakkurni – ya'ni inson faoliyatini biosfera qonunlari bilan uyg'unlashtirishni targ'ib qiladi.

2. **Ekologik etika va mas'uliyat.** A.Shveytserning "hayotga ehtirom" tamoyili va O.Leopoldning "Yer etikasi" ekologik gumanizmning axloqiy asosini tashkil etadi. Bu yerda axloqiy subyekt doirasi faqat inson bilangina cheklanmay, butun tirik mavjudotlar va ekotizimlarga kengaytiriladi. Inson o'z harakatlarining ekologik oqibatlarini oldindan ko'ra bilishi va ular uchun nafaqat huquqiy, balki ma'naviy mas'uliyatni ham his qilishi kerak.

3. **Barqaror rivojlanish qadriyatlari.** Ekologik gumanizm barqaror rivojlanish konsepsiyasining ma'naviy poydevoridir. U iqtisodiy o'sish, ijtimoiy adolat va ekologik muvozanatni o'zaro bog'liq holda ko'rib, iste'molchilik psixologiyasidan voz kechib, "ekologik yetarlilik" tamoyili asosida yashashni

tarbiyalaydi. Kelajak avlodlarning o'z ehtiyojlarini qondirish huquqi ushbu mas'uliyatning markaziy qismidir.

4. **Ekologik madaniyat va ta'lim ustuvorligi.** Ekologik gumanizmda ta'lim faqat axborot yetkazish vositasi emas, balki yangi ekologik ong va shaxsning ichki madaniyatini shakllantiruvchi institut sifatida qaraladi. Bu yerda bilim, his-tuyg'u va amaliy faoliyat birligi (kognitiv, affektiv va konativ komponentlar) muhim ahamiyat kasb etadi. Ekologik gumanizm talqinida ekologik ta'lim "ekologik shaxs"ni – atrof-muhit bilan ongli va mas'uliyatli munosabatda bo'luvchi fuqaroni tarbiyalashga xizmat qilishi lozim.

Zamonaviy ekologik ta'limda ekologik gumanizm g'oyalarining metodologik o'rni

An'anaviy ekologik ta'lim ko'pincha tabiiy-ilmiy bilimlarni yetkazish va qo'riqxonalar, ifloslanish darajasi haqida ma'lumot berish bilan cheklanib qolgan edi. Ekologik gumanizm bu yondashuvni tubdan o'zgartiradi. Uning metodologik ahamiyati quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi:

- Antropotsentrizmdan ekosentrizmga o'tish. Ekologik gumanizm o'quv dasturlariga "inson – tabiat" dualizmini yengib o'tishga yordam beruvchi ekosentrik qadriyatlarni kiritadi. Bunda o'quvchi o'zini tabiatning bir bo'lagi sifatida his qilishi, empatiya va bog'liqlik tuyg'ulari rivojlanadi.
- Shaxsga yo'naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuv. Ushbu falsafa ta'limni shaxsning ichki ehtiyojlariga moslashtirishni talab qiladi: atrof-muhitga nisbatan mehr-muhabbatni uyg'otish, tanqidiy fikrlash, ekologik loyihalarda ishtirok etish va qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish. YUNESKO

tomonidan ilgari surilgan “Barqaror rivojlanish uchun ta’lim” konsepsiyasi aynan shu tamoyillarga tayanadi.

- Integrativlik va fanlararo yondashuv. Ekologik gumanizm talablari ta’limda biologiya, geografiya, huquq, etika, iqtisod va san’atni birlashtirishga undaydi. Ekologik muammolarni kompleks tushunishgina ekologik gumanistik dunyoqarashni hosil qiladi.
- Faoliyatli-faol yondashuv. Nazariy bilim amaliyot bilan mustahkamlanmasa, ekologik ong shakllanmaydi. “Dala maktablari”, ekovolontyorlik, ilmiy-tadqiqot loyihalari orqali o‘quvchi ekologik mas’uliyatni bevosita his etadi.

Shunday qilib, ekologik gumanizm zamonaviy ekologik ta’limning maqsadini “biladigan inson”dan “mas’uliyatli va faol fuqaro”ni tarbiyalashga ko‘chiradi. U ta’lim jarayonini aksiologik (qadriyatlarga asoslangan) mazmun bilan boyitadi.

Yangi O‘zbekiston misolida ekologik gumanizm tamoyillarining ekologik ta’limga tatbiqi

Yangi O‘zbekiston sharoitida ekologik ta’limni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yilda tasdiqlangan “2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi”, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun (2020) hamda 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ekologik xavfsizlik, atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik madaniyatni shakllantirish masalalari aniq belgilab berilgan. Ushbu hujjatlarda ekologik gumanizm g‘oyalari bilan bevosita uyg‘unlikni ko‘rish mumkin.

1. **Ekologik ta'lim tizimidagi tarkibiy islohotlar.** Yangi O'zbekistonda ekologik ta'lim uzluksiz tizim shaklida tashkil etilmoqda. Maktabgacha ta'limdan boshlab bolalarda tabiatga mehr uyg'otish, jonli va jonsiz tabiat birligini his qildirishga qaratilgan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturiga ekologik mazmun kiritilgan. Umumiy o'rta ta'limda "Atrofimizdagi olam", "Tabiatshunoslik", "Biologiya", "Geografiya" fanlari ekologik komponent bilan boyitilmoqda. Yangi joriy etilgan "Tarbiya" fani esa ekologik mas'uliyat va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Oliy ta'limda "Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" yo'nalishlari bilan bir qatorda, barcha ta'lim yo'nalishlarida "Ekologiya va barqaror rivojlanish" kabi fanlar o'qitilmoqda, bu fanlar bevosita ekologik gumanizm tamoyillariga tayanadi.

2. **"Yashil universitet" va ixtisoslashtirilgan markazlar.** 2023-yilda tashkil etilgan Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishi universiteti ("Yashil universitet") ekologik ta'lim va tadqiqotning yangi modelini yaratmoqda. Ushbu universitet ta'lim dasturlarida nafaqat texnik, balki ekologik etika, yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanishning gumanitar jihatlari keng qamrab olingan. Bu esa ekologik gumanizm talqinidagi fanlararo yondashuvning amaldagi ifodasidir.

3. **Umummilliy loyihalar va amaliy faoliyat.** "Yashil makon" umummilliy loyihasi nafaqat daraxt ekish aksiyasi, balki kuchli tarbiyaviy vositaga aylandi. Unda maktab o'quvchilari, talabalar va keng jamoatchilik ishtiroki orqali ekologik mas'uliyat va jamoaviy ekologik harakat madaniyati shakllantirilmoqda. Har bir ekilgan ko'chat ortida "inson – tabiat yaratuvchisi va himoyachisi" degan ekogumanistik tamoyil yotadi. Maktablarda "Eko-maktab", "Yosh ekolog"

to'garaklari faoliyati kengaymoqda, bu esa bolalarda eksperimental va amaliy faoliyat orqali ekologik ongni o'stirishga xizmat qiladi.

4. **Raqamli va innovatsion yondashuvlar.** Ekologik gumanizm g'oyalari raqamli ta'lim platformalarida interaktiv ekologik xaritalar, virtual laboratoriyalar va simulyatorlar orqali boyitilmoqda. Bu o'quvchiga sayyoraviy ekologik jarayonlarning o'zaro bog'liqligini his qilish imkonini beradi. "E'lon qilingan ekologik axborot markazlari" va mobil ilovalar orqali fuqarolarda ekologik ogohlikni oshirish "butun jamiyat uchun ta'lim" tamoyilini amalga oshiradi.

5. **Kadrlar tayyorlash va pedagogik qadriyatlar.** Yangi O'zbekistonda ekologik pedagog kadrlar tayyorlashda gumanistik yondashuv alohida o'rin tutmoqda. Pedagoglar nafaqat ekologik bilimlarni yetkazuvchi, balki o'quvchilarda empatiya, tabiat go'zalligini his etish va ekologik javobgarlik tuyg'ularini uyg'otuvchi "ma'naviy murabbiy" sifatida ko'rilmogda. Malaka oshirish tizimiga "Ekologik madaniyat asoslari" moduli kiritilgan bo'lib, unda ekologik gumanizm falsafasi alohida mavzu sifatida o'rganilmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Yangi O'zbekistonning "Inson qadri uchun" tamoyili ekologik gumanizmning "inson hayoti va tabiat hayotini qadrlash" degan bosh g'oyasi bilan to'la uyg'unlikdadir. Mamlakatdagi islohotlar ekologik ta'limni faqat davlat dasturi darajasida qolmasdan, milliy ma'naviyatning ajralmas qismiga aylantirishga qaratilgan.


Xulosa

Ekologik gumanizm g'oyalari zamonaviy ekologik ta'limning shunchaki nazariy asosi bo'lib qolmay, uning amaliy metodologiyasini belgilab beruvchi konseptual

kuchdir. Inson va tabiat birligi, ekologik mas'uliyat, noosferaviy tafakkur kabi tamoyillar o'quvchilarda ekosentrik dunyoqarashni shakllantirish, barqaror rivojlanish qadriyatlarini singdirish va faol fuqarolik pozitsiyasini tarbiyalash imkonini beradi. Yangi O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan tizimli ekologik ta'lim islohotlari, "yashil" iqtisodiyot strategiyasi hamda amaliy umummilliy loyihalar ekologik gumanizm tamoyillarini hayotga tatbiq etishning samarali modelini yaratmoqda. Kelgusida ushbu yo'nalishni yanada chuqurlashtirish uchun ekologik ta'limning barcha bosqichlarida ekologik gumanizm konsepsiyasini yaxlit o'quv-metodik tizim sifatida joriy etish, o'qituvchilarning gumanistik kompetensiyalarini rivojlantirish hamda oila va mahalla institutlari bilan hamkorlikda ekologik madaniyatni shakllantirish bo'yicha kompleks dasturlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq. Zero, tabiatga insonparvar munosabat jamiyat ma'naviy yetukligining muhim ko'rsatkichidir.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2022. – 320 b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 23.09.2020 y., O'RQ-637-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori, 2019 yil 4 oktyabr.



4. Vernadskiy V.I. Biosfera va noosfera. – M.: Ayriss-press, 2012. – 576 b. (rus tilida)
5. Moiseyev N.N. Sovremennyy antropogenez i sivilizatsionnye razlomy. – M.: MNEPU, 1994. – 152 s.
6. Shveytser A. Hayotga ehtirom. – M.: Progress, 1992. – 576 b. (tarjima)
7. Ursul A.D. Noosfernoe obrazovanie – strategiya ustoychivogo razvitiya. – M.: RAGS, 2003. – 336 s.
8. To‘laganov A.A., Jo‘rayev M.M. Ekologik madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2021. – 188 b.
9. YUNESKO. Education for Sustainable Development Goals: learning objectives. – Paris: UNESCO, 2017. – 62 p.